

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI**
(2025-yil 3-son)



**FILOLOGIYA
PHILOLOGY**

ORCID: 0000-0002-8150-0116

UDK: 821.5 12.133 (092)

NODIRA SHE‘RIYATIDA TASAVVUF – MA‘NAVIY TAMOYIL SIFATIDA

*Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna,
Alfraganus universiteti, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent,
s.eshtonqulova@afu.uz*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Nodira she‘riyatida tasavvufning ma‘naviy tamoyil sifatida tutgan o‘rni tahlil etilgan. Qur‘oni Karim va tasavvuf ta‘limotlari o‘zbek adabiyotining shakllanishida muhim omil bo‘lganligi, Nodira ijodida ham chuqur aks etganganligi bilan asoslangan. Shoira asarlarida insonning ma‘naviy kamoloti, shariat, tariqat va haqiqat tushunchalari orqali yoritilgan. Tasavvuf adabiyoti inson axloqi, ruhi va tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, Nodira ijodidagi badiiy unsurlar orqali tasavvufning ma‘naviy tamoyil sifatida aks etishi tabiiy hodisadir.

Maqolada psixo-biografik va germeneytik metodlar asosida Nodiraning “ishqi haqiqiy” va “ishqi majoziy” tushunchalari talqin qilingan. Nodira lirikasida ishq mavzusi asosiy o‘rin tutar ekan, shoira asarlarida ilohiy ishq va insonga bo‘lgan muhabbat badiiy ifodalanganligi, uning she‘rlarida Allohga bo‘lgan muhabbat, islomga e‘tiqod va tabiatga mehr uyg‘unlashib ketganligi ilmiy asoslangan. Shoraning axloqiy qarashlari orqali she‘riyatida tasavvufiy tamoyillar ochib berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Nodira, she‘riyat, tasavvuf, ma‘naviyat, “ishqi haqiqiy”, “ishqi majoziy”, shariat, tariqat, haqiqat.

СУФИЗМ В ПОЭЗИИ НОДИРЫ – КАК ДУХОВНЫЙ ПРИНЦИП

АННОТАЦИЯ. В данной статье обосновано, что Коран и суфийские учения сыграли важную роль в формировании узбекской литературы и глубоко отразились в творчестве Нодир. В её произведениях духовное совершенствование человека раскрывается через понятия исламское учение, путь и правда. Поскольку суфийская литература связана с нравственностью, духом и мышлением человека, художественные элементы в творчестве Нодир естественным образом передают суфизм как духовный принцип.

В статье на основе психо-биографического и герменевтического методов интерпретируются понятия «истинной любви» и «метафорической любви». В лирике Нодир тема любви занимает центральное место, а её произведения художественно

выражают как божественную любовь, так и любовь к человеку. Научно обосновано, что в её стихах гармонично переплетаются любовь к Аллаху, вера в ислам и любовь к природе. Через нравственные взгляды поэтессы раскрываются суфийские принципы в её поэзии.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Нодира, поэзия, суфизм, духовность, «истинная любовь», «метафорическая любовь», исламское учение, путь к совершенству, правда.

SUFISM IN NODIRA'S POETRY – AS A SPIRITUAL PRINCIPLE

ABSTRACT. This article substantiates that the Quran and Sufi teachings played a significant role in shaping Uzbek literature and are deeply reflected in Nodira's works. In her works, the spiritual perfection of a person is revealed through the concepts of Islamic teachings, the path, and the truth. Since Sufi literature is closely connected with morality, the human spirit, and thinking, the artistic elements in Nodira's works naturally convey Sufism as a spiritual principle.

Using psycho-biographical and hermeneutic methods, the article interprets the concepts of "true love" and "metaphorical love." In Nodira's lyrics, the theme of love holds a central place, and her works artistically express both divine love and love for humanity. It is scientifically substantiated that her poetry harmoniously intertwines love for Allah, faith in Islam, and love for nature. Through the poetess's moral views, Sufi principles are revealed in her poetry.

KEYWORDS: Nodira, poetry, Sufism, spirituality, "true love," "metaphorical love," Islamic teachings, the path to perfection, truth.

KIRISH. Qur'oni Karim ta'limi va tasavvufning ma'naviy tamoyil sifatidagi o'rnini o'zbek mumtoz adabiyotining har bir bosqichi hamda adabiy merosi misolida kuzatishimiz mumkin. Adabiyot tarixiga doir qaysi bir nodir asarni qo'lga olmaylik, unda insonning ma'naviy kamoloti va shaxs sifatidagi takomilida islom ta'limi, Qur'on oyatlari hamda tariqatga oid qarashlarning ulkan ma'rifiy o'rni borligini ko'ramiz [13,8]. Nodira ijodining yuksakligi, shubhasiz hayot jarayonlarining tub ildiziga nigoh tashlay olishida, tafakkurining keng qamrovliligida, ijtimoiy voqelikka o'ziga xos nazar solishida yorqin namoyon bo'lganida, shoir ijodiga ta'sir ko'rsatgan tasavvufiy va axloqiy-ma'naviy tushuncha va tamoyillarni yaxshi bilganidadir.

Shariat – ruhiy-ma'rifiy kamolot yuksakligining birinchi pog'onasidir. Usiz erishilgan har qanday daraja mardud bo'lishi so'fiylar qarashlarida ham, so'fiyona she'riyatda ham o'z aksini topgan. Shunday ekan, tasavvufda ham, uning ta'siridagi adabiyotda ham “shariat – mash'al, tariqat – yo'l, haqiqat – boradigan manzildir” [15,14], – degan qarash umumiy va o'zgarmas qoida hisoblanadi. Tasavvufning adabiyot, xususan, she'riyat bilan yaqinlashuvi tasodifiy hodisa bo'lmagan. Chunki xuddi adabiyot singari tasavvuf ham inson axloqi, ko'ngli, ruhi va tafakkuri bilan mashg'ul bo'lishni qo'llab-quvvatlagan. Qolaversa, “tasavvuf

adabiyotini o‘rganmay turib musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida yorqin tasavvur olib bo‘lmaydi”[2,54]. Bundan tashqari, “tasavvuf bilan badiiy ijod orasidagi yaqinlikni so‘fiylar va ijodkorlarning ruhan yaqinligidan ham izlasa bo‘ladi” [7,156]. Binobarin, “..tasavvuf jahon tafakkuri tarixining uzviy bo‘lagi” sifatida ma‘lum [10,26] ekan, Nodiraning borliq, inson haqidagi fikrlarining tasavvufiy asoslarini bilish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. XX asr nodirashunoslikda shoira ijodini atroflicha o‘rganilganligi bilan ajralib turadi. Nodira tarjimayi holi, ijodiy merosiga oid bir qator tadqiqotlar adabiyotshunos olimlar tomonidan turli aspektlarda tadqiq etilgan [11,563; 12,182]. Mustaqillik yillaridan so‘ng ham shoira shaxsiyati va she‘riyatini yoritishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan [9,292; 3,158; 4,267]. Qayd etilgan tadqiqotlarda Nodira shaxsiyati, dunyoqarashi, asarlaridagi tarixiy obrazlar tizimi, poeziyasi borasida turli yo‘nalishlarda turli munosabatlar bilan fikr-mulohazalar milliy istiqlol nuqtayi nazaridan biografik va qiyosiy-tipologik metod orqali tahlil etilgan. Biroq, Nodira she‘riyatida tasavvuf – ma‘naviy tamoyil sifatida shoiraning “ishqi haqiqiy” va “ishqi majoziy” tushunchalariga doir o‘ziga xos axloqiy asoslari va komil inson masalasi alohida psixo-biografik metod asosida kompleks tahlil etilmagan, germeneytik usullaridan foydalanilgan holda maxsus tadqiqot doirasiga tortilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Aytish joizki, Nodira lirikasida asosiy o‘rinni ishq mavzusi egallaydi. Sharq she‘riyatining yetakchi motivi lirik qahramonning ichki ruhiy o‘y-kechinmasini ifodalasa, albatta, bu iztiroblarning eng jo‘shqini, alohida e‘tiborga moliki, inson qalbini titratib, larzaga solgan ishq-muhabbat tuyg‘ularidir. Ishq-muhabbat mavzusi qadimdan barcha insonlarni qiziqtirib kelgan. Ibn Sino “Ishq haqida risola” (“Risola fil-ishq”)sida inson qalbini junbushga keltirgan muhabbatni ruhiy emotsional holat deb bilganligini ko‘rish mumkin. Olim insondagi bu emotsional ruhiy holatni jamiki tabiiy unsurlarda kechadigan jarayon deb hisoblaydi va odamzodga xos bo‘lgan ishqdan hayvoniy hirsiy ishqning farqli tomonlarini aniqlaydi [17,47-68]. Ulug‘ zot bo‘lgan inson muhabbati barcha tomonlari bilan hayvoniy hirsdan yuqori turishligini, o‘z jismidagi hayvoniy hirs bo‘lmish ishqni yenga olsagina inson ilohiy ishq sohibi sifatida oliy maqomga ega bo‘lishini Ibn Sino o‘z asarida ilmiy dalillaydi. Imom G‘azzoliyning “Diniy ishlarning tiklanishi” (“Ihyoi ulum-ad-din”) kitobidagi “Najotga eltuvchilar” (“Munjiyyot”) deb atalmish to‘rtinchi qismi tarkibida ham bu mavzuda alohida bob ajratilgan bo‘lib, mutafakkir mazkur insoniy tuyg‘uning kimga yo‘naltirilganiga ko‘ra 5 turga ajratadi:

1. Insonning yaratganga ishq.
2. Insonning yaqinlari, qadrllovchi, sevuvchilarga ishq.
3. Nazokatli qalbi pok, mehribon insonlarga ishq.
4. Atrofidagi botinan, zohiran go‘zallik sohiblariga ishq.
5. Umuman bag‘ri keng, keng fe‘lli, maslakdoshlariga ishq [1,238].

Ushbu muhabbat turlari G‘azzoliyning keyingi mantiqiy tahlili natijasida yaratuvchi va xojasi deb bilgan – Allohga bo‘lgan muhabbatida yagona oliy tuyg‘uga birlashadi. Tasavvuf

ta’limotida ushbu qarashlar umumlashtirilib, alal oqibat, “ishqi haqiqiy” va “ishqi majoziy” tushunchalari tarzida namoyon bo‘ldi. “Ishqi haqiqiy” Yaratganga bo‘lgan chuqur muhabbat bo‘lib, Parvardigorning vaslini ko‘rishga muhtojlikni anglatga, “ishqi majoziy” bandalarning bandalarga hamda o‘tkinchi olamga qo‘yilgan ishq sifatida talqin etiladi [6,23-24].

Shoira Nodira ijodini kuzatar ekanmiz, uning lirikasida “ishqi ilohiy”, “ishqi majoziy” tasvirining go‘zal namunalarini uchratamiz. Masalan:

*Avvali nomamni hamding birla aylay ibtido,
Xoti pokingga erur na ibtido, na intiho.
Men kimu vasfingni zikr etmak va lekin ko‘ngluma,
Yuz tuman shavqi muhabbat shu‘lasi bermish ziyo...
Ikki olamda umidim sendin ermish, Komila,
Qilmag‘il, yo rab, o‘zungdan o‘zgalarga oshno (N1;29).*

Shoira ushbu g‘azalini Robbisiga bitar ekan, o‘ziga behisob shavqu muhabbati ziyo berganligini chin yurakdan e’tirof etadi. Yagona Yaratuvchiga “o‘zungdan o‘zgalarga oshno qilmag‘il”, – deya ishq izhorini namoyon etadi.

Nodira lirikasida Haq taologa intilish va ishq ilohiyga bag‘ishlangan quyma satrlarni ko‘plab uchratish mumkin. Shoiraning she’rlarida Allohga muhabbat, islom diniga e’tiqod, inson va tabiatga bo‘lgan mehr tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashib ketadi. “Paydo” radifli g‘azalida Allohga qarata: Sening muhabbating bilan to‘liq qalbim o‘zligini bildirdi, senga bo‘lgan muhabbatim ifodasi – ko‘z yoshlarimdan vafo niholi unib chiqdi, –deb shukr va faxr tuyg‘usini izhor etadi.

*Xudovandeki bo‘ldi sun‘din arzu samo paydo,
Qilur bir qatra suvdin gavhari qimmatbaho paydo...
Kamoli qudratidan olam ijod aro bo‘lmish,
Gulu xoru ganju muflisu shohu gado paydo.
Yorutding oshiqu mahbuba husnu ishq mir‘otin,
Ki bo‘ldi gul bila bulbul aro bargu navo paydo.*

Yuqoridagi misralardan ko‘rinib turibdiki, shoira Alloh vasfida uning benazirligini tasvirlab beradi. Uning benihoyat qudrat egasi ekanligini “bir qatra suvdin gavhari qimmatbaho paydo” qila olishida, umuman, olam yaratqilarini go‘zal va benuqson bunyod etganini, shu bois ishqida “gul bila bulbul aro bargu navo paydo” bo‘lganligini zavq-shavq bilan kuylaydi. Tong nurlarining har bir zarrasida ham, hattoki, Haq taolo mehri namoyon bo‘lishini his etgan shoira, minnatdorchiligi evaziga ko‘z yoshlar to‘kib, Yaratganga vafoli bo‘lishini tarannum etadi:

*Bihamdillah, guli mehru muhabbat oshkor o‘ldi
Ki, bo‘ldi Komila ko‘z yoshidin naxli vafo paydo (N1;30).*

Shoira Allohga vafosining cheksiz ekanligini, uning birligiga nafaqat dono, balki johil ham iqrorigini o‘tliq misralarga jo aylar ekan, Haq jamolini ko‘rishni bir umr orzu qiladi:

*Muhtoj sening dargohingga mo‘minu muflis,
Iqror sening birligingga johilu dono...*

Hajr ichra erur Komila mushtoqi visoling,

Shoyadki ko‘zim qilsa jamolingni tamosho (N1;28).

Nodira lirikasida an‘anaviy ishq-muhabbat, irfoniy, axloqiy-ma‘rifiy, hamd, na‘t va munojot mavzulariga alohida ahamiyat berilgan. G‘azallarida tasavvufiy timsol va irfoniy talqinlar ham muayyan o‘rin tutadi. Shoirah mahbub, sham‘, parvona, o‘t, orif, ko‘ngil, ruh, but, butxona kabi timsollar vositasida Inson va Alloh o‘rtasidagi botiniy bog‘liklikni ifodalaydi. Aytish mumkinki, “...agar so‘zlarda faqat lug‘atda qayd etilgan muayyan ma‘noga bo‘lganda va ikkinchi til (badiiy til – izoh bizniki S.E.) tilning bunday to‘g‘riligini buzmaganda va undan ozod qilmaganda edi, adabiyot ham bo‘lmas edi” [16,47-68].

Tasavvufiy ruh bilan sug‘orilgan ushbu misralarda shoirah ishq yo‘lidan bexabar zohidni qabihguftor shaxs sifatida ta‘riflaydi. Nodira o‘zini “ishq oinasi” deb ataydi. Shu oinada inson o‘zining butun orzu va o‘ylari bilan namoyon bo‘ladi [14,31-32].

“Komila devonida o‘zini rind, qalandar deb atagan baytlar, g‘azallar ham mavjud. Ilohiy ishq talqin etilgan “omadam” radifli g‘azalida shoirah “ishq libosini kiyganman, murod tojini boshimga qo‘yganman, aylanib turgan charx piyolamdir, men bir rind qalandarman”, – deb yozadi:

Kisvati ishq dar baram, toji murod bar saram,

Gardishi charx sog‘aram, rindi qalandar omadam.

Keyingi baytlar shoirah mushohadalarini yanada aniqroq ifodalaydi:

Fahru fano tariqi man, mehru vafo rafiqi man,

Ishqi butan shafiqi man, valai dilbar omadam.

Bas, ki rahi malak zadam, naqshi vujudi haq zadam,

Pay ba no‘h falak zadam, bar sari chamber omadam...

Bu baytlarda shoirah mutasavvuf ayol qiyofasida namoyon bo‘ladi. U faqr va fano yo‘lida yo‘lchi ekanligini bayon etmoqda. Shoirah qaysidir tariqatga rasman aloqador bo‘lmasa-da, qalban ixlosmand bo‘lgan. Balki, keyingi baytda ishora etilayotganidek, “Haq vujudini naqsh etib”, naqshbandlarga ixlos qilgandir” [8,111]. Biroq shuni alohida qayd etish joizki, Nodira ijodida “ishqi ilohiy” bilan hamohang tarzda “ishqi majoziy” ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Shoirah ash‘orlarida ishq ilohiy bilan ishq majoziy uyg‘unlikda yuqori cho‘qqi, go‘zal tuyg‘u sifatida talqin etilishi bilan birga, shoirah lirik qahramon – oshiq ahvolidan darak berib, tuyg‘ulari bilan majoziy hamda ilohiy g‘oyalarni uyg‘unlashtiradi. Bu g‘oyalar shoirah ko‘zlagan mehr-vafo, insoniylik, yaxshi axloqni va fazilatlarni ifodalasa, boshqa jihatdan, Yaratganga bo‘lgan mislsiz intilish bilan bog‘liq tasavvurlarni ham qamrab oladi. Adabiyotshunos olim A.Hayitmetovning: “Garchi Sharq poeziyasi tarixida biz satirik, falsafiy, avtobiografik g‘azallarni, tabiat, may haqidagi g‘azallarni uchratsak ham, lekin g‘azalning asosiy spetsifik mavzusi ishqdir. Buni faqat g‘azal nazariyachilarining fikrigina emas, balki shu narsaning necha yuz yillik taraqqiyot tajribasi ham ko‘rsatib turadi” [5,56], – degan qarashlari naqadar asosli ekanligini Nodira lirikasi misolida ham ko‘rishimiz mumkin. “Nodira she‘riyatida ikki xil ishq

bir-biri bilan uyg‘unlashgan holda yuzaga chiqadi va ayni paytda bu hol shoiraning keng qamrovli ijodkor sifatidagi salohiyatini ko‘z-ko‘z qiladi” [13,3].

Nodira asarlari abadiyligining sababi ham uning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yuksak fikrlarni oliy badiiy shaklda berganligida, deb hisoblaymiz. Nodira insonlar o‘rtasidagi munosabatlardan tortib, eng muqaddas hodisalargacha ishq mavzusi bilan bog‘liq holda tasvirlaydi.

Fikrimizni oydinlashtirish uchun quyidagi birgina g‘azalni keltiraylik. Uning g‘azali butun mohiyati bilan bedorlikka da‘vat sifatida hech bir kishini befarq qoldirmaydi:

Kel, dahrni imtihon etib ket,

Sayri chamani jahon etib ket.

Matla‘da “Inson hayotga keldimi hayotni, yorug‘ olamni va insonlarni bilish va anglashga qodir bo‘lmog‘i, so‘ng ketmoqqa haqli”, – degan fikr aytilib, ruhan va qalban bedorlik, jamiyat, davr, xalq va muhitga nisbatan ma‘naviy bedorlik g‘oyasi targ‘ib qilingan.

Bedardlarning jafolaridin

Faryod chekib, fig‘on etib ket.

Ikkinchi baytda esa inson “Inson ko‘nglida dardi yo‘q qahrilardan qochishi, o‘z dardini to‘kib, so‘ng ketmoqqa haqli”, – deb hisoblaydi. Shoira e‘tiroficha, inson sergak hissiyotlarga tayanib yashashi kerak. Chunki kim dardli bo‘lsa, u komildir. Qorin zahmati, oila tashvishi uchungina ishlab, faqat shular uchungina yashab bo‘lmasligi, shuning uchun ham dardsiz jafokashlardan qochishni targ‘ib etadi.

Dunyo chamanini bulbulisen,

Gul shoxida oshiyon etib ket.

Uchinchi baytda “Inson dunyo chamani gullari ichidagi sayroqi bulbul kabi haroratli va ta’sirchan bo‘lishini, so‘ng ketmoqqa haqli” ekanligi bayon qilinadi.

Ey ashk, ko‘zimni maktabidin,

Hayrat sabaqin ravon etib ket.

To‘rtinchi baytda “Inson og‘riqli ohanglari ila butun dunyoni hayratga solishni, so‘ng ketmoqqa haqli”ligini ta’kidlagan. Inson ko‘zi – uning kalbi, uning mangu beorom, halovat bilmas yuragi, qaysi bir darajada bo‘lmasin, aniqlik markazi. Unda hayot, inson, ezgulik, yovuzlik, adolat haqidagi aniq haqiqatlar aks etishi kerak, – deb hisoblaydi.

Olam chamaniki bevafo dur,

Bir oh bila xazon etib ket.

Beshinchi baytda “Bu yolg‘on va o‘tkinchi dunyoda inson bir nafas ila to‘zigan barg misoli uzilib, xazonga aylangani kabi, so‘ng ketmoqqa haqli”, ya’ni unda yolg‘on va aldovlardan ozod bo‘lib, barg o‘zidan toza nafas chiqargani kabi, hayotlik chog‘ida buyuk g‘oya va maqsadlar sari intilib yashashi kerakligi aytiladi.

Ushshoq maqomi bo‘stondur,

Azmi rahi bo‘ston etib ket.

Oltinchi baytda “Inson ishq egalarining manzili bo‘lgan bo‘stondir. Ana shu bo‘stonga intilib yashash” lozimligi targ‘ib etilgan. Chunki shoira nazdida ishq – bu Iymon. Muhabbatli kishilargina iymonli. Nodira inson hayoti mobaynida faqat iymonli kishilargagina ergashish kerakligini uqtiradi.

Maqsad na edi jahona kelding?

Kayfiyatini bayon etib ket.

Yettinchi baytda “Hayotga kelishidan inson ne maqsad ekanligini anglaganidan va o‘zgalarga ayon etganidan so‘ng, ketmoqqa haqli” deb shoira inson o‘z umrini g‘animat bilmog‘i, uni behuda sarflamasligi, hayotda har bir kishining o‘z maqsadi bo‘lmog‘i, befarq va loqayd bo‘lmasligi, bu besh kunlik dunyoda ezgulik ila maqbul amallarni qilmoqlikka chaqiradi va ma‘naviy bedorlikka da‘vat qiladi.

Fosh etma ulusqa ishq sirrin,

Ko‘ngulda ani nihon etib ket.

Sakkizinchi baytda “Nodon olomon – jaholatdan sarmast to‘daga o‘z dilidagi ishq sirlarini fosh etib bo‘lmaydi, inson undaylarga ko‘nglini ochgandan ko‘ra, qalbida uni pinhon saqlagani ma‘qul” deb hisoblaydi.

Kel, ishq yo‘lida ko‘zlaringni,

Ey Nodira, durshifon etib ket (N1;83).

G‘azalning maqta’sida “Ey Nodira, ishq yo‘liga ko‘zlaringdan dur kabi ko‘z yoshlaringni ayamay to‘k” deya hikmatomuz misralar yaratgan. Hayotning ham, inson umrining ham hal qiluvchi muhim ikki chegarasi – tiriklik va o‘lim – Nodira g‘azalida ikkita g‘oyaviy qanot yordamida o‘z qarashlarini bayon etgan. Ya‘ni umrning kunlarinigina emas, qisqa soatlari-yu va daqiqalarini ham o‘lim changaliga topshirmay, o‘ziniki qilib saqlab qolmoq uchun insonga “ishq yo‘lida” o‘zini bag‘ishlash ato etilgan. Shuning uchun ham ishq – Ona yurtga, halqqa, hayotga muhabbat tufayli ma‘nan bedorlik – inson ruhiyatining o‘lim ustidan g‘alabasi, abadiylikka erishish yo‘lidir.

Shunday ekan, g‘azal tahlilidan Nodira insoniyat uchun naqadar ulug‘ va qimmatbaho san‘at xazinalarini meros qilib qoldirgani ko‘rinib turibdi. Ijodkor barcha lirik asarlarida g‘oyaviy yaxlitlikka intilgan, matla’dagi fikrni g‘azal maqta’sigacha tadrijiy davom ettirishga, boshlama baytlardagi aytilgan g‘oyani baytma-bayt ochib, dalillab borishga va betakror xulosalar bilan yakunlashga harakat qilgan. Bunday xususiyatlarning shoira ijodida yorqin namoyon bo‘lishi ularning o‘ziga xos badiiy talqin etilishiga sabab bo‘lgan.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Nodira asarlarida “ishqi haqiqiy” va “ishqi majoziy” tushunchalari yorqin ifodalangan bo‘lib, u tasavvufni chuqur anglashidan dalolat beradi. Nodira lirikasida muhabbat faqat tuyg‘u emas, balki inson kamolotini anglatuvchi ma‘naviy jarayondir. Shoira nazdida komil inson ma‘naviy yo‘lni tanlar ekan, u albatta, shariat – asos, tariqat – yo‘l va haqiqat – oliy haqiqatga erishadi deb tasvirlanadi. U muhabbatni Allohga yetishishning yuksak maqsadi sifatida madh etadi, shu bilan birga, din, tabiat va inson ruhi o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifoda etadi. Nodira ijodida ham ishq va muhabbat ideal tuyg‘u sifatida talqin etilib,

lirik qahramon – oshiq ahvolidan xabar berish bilan birga ilohiy g‘oyalarni ilgari suradi. Shoir falsafasida yaxshilik va yomonlik, adolat, ishq-muhabbat kabi axloqiy tushuncha va tasavvufiy tamoyillar katta o‘rin egallagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абу Хамид ал Ғазали. Воскрешение наук о вере. –М.: Наука, 1980. – С.238.(Abu Hamid al-Ghazali. The Revival of the Sciences of Faith. – Moscow: Nauka, 1980. – p. 238).
2. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – С. 54.(Bertels E.E. Sufism and Sufi Literature. – Moscow: Nauka, 1965. – p. 54).
3. Eshonqulova S. Nodira she’riyatida tarixiy obrazlar talqini. Filol. fan. nom. ...diss. – T., 2011. – B. 158. (Eshonqulova S. **Interpretation of Historical Images in Nodira’s Poetry**. PhD dissertation in Philological Sciences. – Tashkent, 2011. – p. 158).
4. Eshonqulova S. Nodiraning badiiy mahorati. Filol. fan. dokt. ...diss. – Jizzax, 2022. B. 267. (Eshonqulova S. Nodira’s Artistic Mastery. Doctoral dissertation in Philological Sciences. – Jizzakh, 2022. – p. 267).
5. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. –T.: O‘zR FA, 1961. –B.56. (Hayitmetov A. **Navoi’s Lyric Poetry**. – Tashkent: Academy of Sciences of Uzbekistan, 1961. – p. 56).
6. Imomnazarov M. Mintaqa adabiyoti rivojida tasavvufning o‘rni / Badiiy adabiyot va tasavvuf timsollari. –T.: Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti. –B.23–24. (Imomnazarov M. The Role of Sufism in the Development of Regional Literature / Artistic Literature and Sufi Symbols. – Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies. – pp. 23–24).
7. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. –T.: Yozuvchi, 1996. –B.156. (Komilov N. Sufism. First Book. – Tashkent: Yozuvchi, 1996. – p. 156).
8. Muhitdinova N. Nodira she’riyatida tasavvufiy qarashlar talqini / Tasavvuf adabiyotining o‘rganilishi va tarjimashunoslik muammolari. Respublika ilmiy nazariy anjumani materiallari, 2018. –B.111. (Muhitdinova N. Interpretation of Sufi Views in Nodira’s Poetry / Study of Sufi Literature and Problems of Translation Studies. Proceedings of the Republican Scientific-Theoretical Conference, 2018. – p. 111).
9. Nusratullo Atoulo o‘g‘li Jumaxo‘ja. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros (XVII–XIX asrlar o‘zbek she’riyati asosida). Filol. fan. dokt. ...diss. –T., 1999. – B. 292. (Nusratullo Atoulo o‘g‘li Jumaxo‘ja. National Independence Ideology and Literary Heritage (Based on Uzbek Poetry of the 17th–19th Centuries). Doctoral dissertation in Philological Sciences. – Tashkent, 1999. – p. 292).
10. Qayumov A. Bu ohang ila bo‘lg‘asen naqshband. –T., 1993. – B. 26. (Qayumov A. You Will Be Naqshband with This Melody. – Tashkent, 1993. – p. 26).
11. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII–XIX asrlar): Filol. fan. dokt. ... diss. – T., 1961. – bet 563. (Qayumov A. The Literary Environment of Kokand (18th–19th Centuries). Doctoral dissertation in Philological Sciences. – Tashkent, 1961. – p. 563).

12. Qodirova M. Nodira hayoti va ijodi: Filol. fan. nom. ... diss. –T., 1961. – bet 182. (Qodirova M. The Life and Work of Nodira. PhD dissertation in Philological Sciences. – Tashkent, 1961. – p. 182).
13. Qodirova M. She’riyat va muhabbat malikasi. –T.: Adabiyot va san’at, 1998. –B.3-8. (Qodirova M. The Queen of Poetry and Love. – Tashkent: Literature and Art, 1998. – p. 3-8).
14. Qodirova M. XIX asr o‘zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri. –T.: Fan, 1977. –B.31–32. (Qodirova M. The Fate of Man and the People in the Works of 19th-Century Uzbek Poetesses. – Tashkent: Fan, 1977. – pp. 31–32).
15. Rafiddinov S. Shariat, tariqat va haqiqat // Naqshbandiya, 2010. 1-son. – B.14.(Rafiddinov S. Sharia, Tariqa, and Haqiqa // Naqshbandiya, 2010, Issue 1. – p. 14).
16. Ржевская Р.Ф. О семиотических исследованиях литературоведении // Семиотика и художественная творчество. –М.: Наука, 1977. –С.79. (Rzhevskaya R.F. On Semiotic Studies in Literary Criticism // Semiotics and Artistic Creativity. – Moscow: Nauka, 1977. – p. 79).
17. Сербряннов С. Ибн Сино (Авиценны) о любви. – Тбилиси, 1976. – С.47-68. (Serebryanov S. Ibn Sina (Avicenna) on Love. – Tbilisi, 1976. – pp. 47–68).